

## Xotira bor ekan, tirikdir millat

9 may – Xotira va qadrlash kuni, o'tganlarni yod etish va tiriklarni yo'qlab holidan xabar olish har birimizning vazifamiz sanaladi. Pandemiya sharoitiga qaramay bu yil ham mamlakatimiz balki institutimiz bo'ylab Xotira va qadrlash kunida o'zgacha ruhda urush faxriylari va institutning faxriy o'qituvchilar xonadonlariga tashriflar bo'lmoqda.



Xuddi shunday tashriflarning birida Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.K.Choriyev, "Gidromelioratsiya" fakulteti dekani A.M.Fatxulloev, Fizika kafedrasи mudiri I.Sapayev, "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasи mudiri D.V.Nazaraliev, fizika kafedrasи dotsenti O. Axmedov, "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasи stajyor o'qituvchisi Q.Sh.Eshquvatov hamda fakultetning boshqa professor-o'qituvchilari Mirzo Ulug'bek tumani Lashkarbegi mahallasida istiqomat qilayotgan sobiq general-mayor Abdullajon Artiqbayev xonadonlarida bo'lishdi.



Tashrif davomida sobiq general bilan dildan suhbat qurildi, suhbat so'ngida institut tomonidan ajratilgan sovg'alar taqdim qilindi. Tadbir so'ngida institut jamoasi ko'tarinkи kayfiyatda ish faoliyatiga qaytishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**